

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

AMIR TEMUR MOHIR SARKARDA

Mirzahmedova Xadicha Jamoliddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix O'qitish metodikasi sirtqi 4-kurs talabasi

Annatsiya

Barchamizga ma'lumki bu davrda mamlakatlar o'z hududi o'z rahbariga ega va bu ma'sul shaxslar davlat fuqaroligi tinchligi uchun tinmay kurashadilar, ammo bunday jonkuyarlik avvalgi zamonlarda davlat rahbari uchun ancha qimmatga tushgan, ana shunday adolatli kuchli sarkarda Amir Temur edi. Bu tezisda ana shu tarixiy shaxs tashkil qilgan davlat haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, O'rta osiyo, Mo'g'ul, Yevropa davlatlari

Sayyidlar, mingboshilar, yosh avlod, barkamol inson, zamon ehtiyoji Vatanning, millatning ulug' farzandlari to'g'risida tafakkur qilganimizda ko'z o'ngimizga noyob zakovat sohiblari Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi tarixiy shaxslar namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti Miromonovich Mirziyoyev sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan konfirensiya ma'ruzasida "Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda sohibqironlarni tarix taqozosi zamon talablari kerak bo'lsa zamon ehtiyojlari hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilatlarini namayon qilishga zamin yaratadi... Kimki Amir Temur qadimiy turkiston zaminida tasodifan paydo bo'lgan desa xato qiladi, hech narsa tasodifiy bo'lmaydi,- deb ta'kidlagan edi.¹

Yuqorida keltirilgan ana shu ilmi tarixiy xaqiqat mezoniga amal qilsak mustaqil O'zbekiston –Amir Temur boshqargan ulug' Turkiston davlatining qonuniy vorisidir. Mustabid sovet "dohiylari" tarixning yaratuvchisi xalq, davlat boshliqlari, sarkardalar yoki alohida shaxslar tarixni yarata olmaydilar " degan asossiz g'ayri ilmiy g'oyani targ'ib qilgan edilar. Ammo tarixni xalqning ijtimoiy siyosiy faol, quvvat hofizasi baland, ma'naviy salohiyatli qatlami olimu sarkardalari, davlat arboblari mutafakirlari yaratadilar. Sohibqiron Amir Temur o'z xalqining yangi tarixini yaratgan buyuk davlat arbobidir.

¹ Mirziyoyev. SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. „O'zbekiston“, NMIU, 2018-yil.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mashhur davlat arbobi o'rta asrlar islohatchisi, adolat uchun tolmas kurashchi Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Shahrizabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik mamlakat og'ir ijtimoiy- siyosiy bo'hton iskanjasiga tushib qolgan bir davrga to'g'ri keldi. Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so'ng Amir Temur o'z raqiblarini yengib, hokimyatni qo'lga kiritdi. Mayda, tarqoq feadallarni birlashtirib, markazlashgan yirik feadal davlatni yaratdi. Siyosiy maydonga qadam qo'ygan Amir Temur endigina 24 yoshga kirgandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar o'rtasida o'zaro qarama-qarshiliklar avj olgandi. Ustiga ustak chingizxon avlodlari Movrounnahrga tez-tez bosqin uyushtirib turaradi.²

1370-yilda Amir Temur Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda Movrounnahrning ulug' amiri deb e'lon qildi. U davlatning poytaxti Samarqand deb e'lon qilindi.

1392-yilning yozida o'tmishda 5-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. Omul va Gitisiston qal'asi olinadi. Temurbek 1393-yil boshida Iroq tomon qarab yuradi. Olinmas deb atalgan Safed qal'asi olinadi. Potila yeri yaqinidagi urushda Temurbek Fors o'lkasing shohi Shoh Mansurni yengadi va Shoh Mansurning boshi kesiladi. Temurbek Eron o'lkasi noibligini Muzaffar oilasidan olib o'z beklariga bo'lib beradi. 1393-yil kuzida Bog'dodga yetib keladi. Sulton Ahmad Jaloyir urushsiz qal'ani tashlab qochadi va Temurbek Bog'dodni egallaydi. 1393-yil qish boshida olinmas deb atalgan Tikrit qal'asi olinadi. Ortidan Diyorbokr tomon jo'nab u yerda o'z yo'rig'ini o'rnatadi. 1394-yil Ruha(Urfa) tomon borib u yerda o'z yo'rig'ini o'rnatadi.³ 1394-yil yanvarda Temurbekning ikkinchi o'g'li Umarshayx o'ladi. Mardin qal'asi olinadi. Ortidan 3-4 ming yildan buyon olinmagan Homid qal'asi olinadi. 1394-yilda Avniq qal'asi yiqitiladi. Amir Temur Gurjiston o'zgradinlilari ustiga yana bir bor yurish qilib talaydi. Ortidan To'qtamishxon ustiga yurish qiladi. 1395-yilda Tarak daryosi yoqasida Temurbek To'qtamish bilan to'qnashadi. Temurbek To'qtamishxonni tamoman yengadi. Temurbek Jo'jixon ulusini urish uchun O'rus tomon yuradi. Ulus boshshahri Saroy Botu qal'a shahri qulatiladi. Ortidan Qorasuv(Voronej) otli O'rus viloyati yag'molanadi. Keyin Maskav(Moskva) shahri tomon yuradi va u yerni talaydi. Temurbek Ozoq(Azov) qal'asini oladi. 1396-yil Temurbek Elburzko'hga qaytadi. Olinmas deb atalgan Kula

² Sagdiyev.A.,Fuzailova G., Hasanova M., Tarix oqish metodikasi.-Toshkent:TDPU, 2008.

³ Muiniddin Natanziy „Tarixi Muiniy” Sharq-2014-yil 250-288-betlar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

va Tovus qal'alarini oladi. Temurbek Kavkaz va shimoldagi o'lkalarda o'z hokimiyatini o'rnatgandan keyin 1398-yilda Dehlida Temurlilar davlati bayrog'i ilinadi. Shu yil kuzida o'tmishda 7-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. 1400-yilda Gurjiston tomon yurish qiladi. Zarit va Svanet qal'alarini egallaydi. Bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatib ortga qaytadi. Shom o'lkasi tomon yo'l olgan Temurbek Bihishti va Ayntob qal'alarini oladi. 1400-yilda Temurbek Halab qal'asini oladi. Xama, Xams va Ba'albak kentlari egallanadi. 1401-yilda Damashq urushida Temurbek Mamluq davlati sultoni Farajni uzil-kesil yengadi. Temurbek Damashqni oladi. Keyin Shomdan Iroq tomon yuradi. 1401-yilda Temurbek Bog'dodni qayta egallaydi va buzdiradi. Keyin Tabriz tomon yuradi. Undan chiqib Qorabog' tomon yuradi. Bu orada Usmonli bilan orasi sovigan Temurbek Rum (Anado'li, bugungi Turkiya) tomon yuradi. Shu qishda Tartum qal'asi ortidan Qamoh va Horun qal'alarini oladi. Qaysariya va Anquriya (Anqara) qal'a qamallari chog'ida Boyazid Yildirim qo'shini bilan Anqara yaqiniga kelganini bilgan Temurbek Boyazitga qarshi qo'shinini tizadi. 20/07/1402 Anqara urushida Temurbek Boyazid Yildirimni uzil-kesil yengadi. Yengish yorliqlari dunyoning 4 tomoniga yuboriladi. Birin-ketin Rumdagi shaharlar egallanadi. 02/12/1402 da Amir Temur Izmir tomon yuradi. 14 kundan qisqa chog'da 7 yil Usmonli davlati ola bilmagan Izmir qal'asi olinadi. Ortidan Egridir va Nasibin qal'alari olinadi. Temurbek Rum viloyatidan chiqib Gurjiston tomon yuradi. Umuman olib bo'lmas deb atalgan Kartin qal'asini oladi. 1404-yilda yana biror bora umuman olinmagan qal'a Feruzko'h qal'asi 2 kunda oladi. 1404-yil iyulda Amir Temur Samarqandga kelib tushadi. 1405-yil Xitoyni olishni istagan Temurbek Xitoy tomon yurishini boshlaydi. 1405-yilda O'troga kelib tushadi. Biroq yurish yakuniga yetmaydi. 1405-yil 18-fevralida ayozning ayozli kunlarida Temurbek O'trorda hayotdan ko'z yumadi. Sohibqiron Amir Temur Samarqandda Go'ri Amirda ko'miladi.

Masjidu madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va hammomlar qurildi. Ulkan va bepayon mamlakatning poytaxti bo'lgan Samarqand, Amir Temur niyatiga ko'ra, kurrayi zamindagi eng chiroyli shaharga aylanishi kerak edi. Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng yaxshi me'morlar to'plangan shaharga aylandi. sababchi bo'lgan bobolarimiz qancha qiyinchilik va mashaqatlarni engib o'tganlar. Shunday ekan bu bizgacha etib kelgan boy merosimizni kelajak avlodga etkazish biz uchun ham farz ham qarz hisoblanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xulosa

Amir Temur Buyuk davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, xalqparvar hukumdordir. Tarqoq xalqlarni yagona davlat bayroq ostida birlashtirishdek buyuk va mas'uliyatli vazifani uddasidan chiqqan daho shahs edi. Uning kelajak avlod uchun qoldirib ketgan ibratli o'g'itlari hayot yo'llarimizni mash'aldek yoritib boradi. Amir Temur fahrimiz va g'ururimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev. SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. „O'zbekiston“, NMIU, 2018-yil. Qurolli kuchlar-Vatanimiz va Xalqimizning mustahkam qo'rg'oni. 229-230-bet.
2. Sagdiyev.A.,Fuzailova G., Hasanova M., Tarix oqish metodikasi.-Toshkent:TDPU, 2008.
3. Saidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: Molniya nashr. 2003.
4. Achilova T. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish (ingliz tili misolida.) Chet tillarni o'rganishni takomillashtirish masalalari (Iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari).-Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2015.-B. 10-13.
5. Muiniddin Natanziy „Tarixi Muiniy“ Sharq 2014-yil 250-288-betlar.

